

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



O'ZBEK TILI VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

fani bo'yicha

SILLABUS

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 70111401 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi MFO·M1405	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026							
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
3	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	5	4	60	30	0	30	0	90	150
	Jami:	5	4	60	30	0	30	0	90	150

Fan maqsadi (FM)	
FM 1	Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarni ta'limning turli bosqichlarida til va adabiyot turkumidagi fanlar mohiyatini hamda ularni o'qitishdagi o'ziga xosliklarni, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ayni paytda talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, sohaga oid nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	Ona tilini o'qitish metodikasi
2.	Adabiyot o'qitish metodikasi
3.	Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish va baholash asoslari.

Ta'lim natijalari (TN)

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

- mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni estetik tahlil qilish va baholash mezonlarini; adabiyot o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'zlashtirish shakl va usullarini; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olishni, mutaxassislik fanlariga oid o'ziga xosliklar mavjudligini bilish va ularga ta'lim jarayonida alohida e'tibor berish; har bir fanga oid xususiyatlarining qator ichki va tashqi omillarga bog'liqligini, til o'qitish nazariyalarini; metod va postmetod tushunchalarini, postmetod ta'lim tamoyillarini, til o'qitish strategiyalarini, til o'qitish jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillari haqida bilimiga;
- o'zbek adabiyoti turkumidagi fanlarni o'qitish bo'yicha maktab, akademik litsey, shuningdek, oliy ta'limning bakalavriat bosqichi mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirish; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi; badiiy asarni mustaqil tahlil qila bilishi; adabiyot darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyalarni targ'ib qila olishi, magistrant olingan nazariy bilimlari asosida til ta'limini rejalashtirish, samarali dars tashkil etish, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini adekvat baholay olish va unga mos ravishda o'qitish strategiyalarini bilishi va ulardan foydalana olishga oid ko'nikmaga;
- ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim-tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, shuningdek, yoshlarni adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarga yo'naltira bilish hamda til o'qitish nazariyalarini va metodlarini tanqidiy tahlil qila olish, til ta'limi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta'limni rejalashtirish, o'quvchining bilimni adekvat baholash kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.

Talabalarining kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanidan 3-semestrda 150 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 3-semestrda 5 kredit beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarining bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan

“Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari:

Talabalar bilimni baholash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarini amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat. O‘tilgan mavzular asosida ikki marta, *yozma* shaklda o‘tkaziladi.

Yozma ish 30 ta variantdan iborat, har bir variant 2 ta savoldan tashkil topadi.

Yozma ish 80 daqiqa davomida o‘tkaziladi.

Yozma ish variantining namunasi:

1. XX asr o‘zbek adabiy ta’limiga xos xususiyatlar haqida ma’lumot bering.
2. Til o‘qitish va til o‘qitish malakasining o‘zaro munosabatidagi konsepsiyalarni sharhlang.

Oraliq nazoratni baholash mezonlari:

1. Nazariy ma’lumotning to‘liq va batafsil berilgani, misollar keltirilgani	0–3 ball
2. Fikrlarning tartibli va savodli ifodalangani	0–2 ball

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat. Semestr davomida o‘tilgan mavzular bo‘yicha *Loyiha taqdimoti (og‘zaki)* shaklida o‘tkaziladi. Loyiha ishi har bir talaba tomonidan alohida bajariladi. Loyiha ishini bajarish va taqdim etish tartibi quyidagicha:

LOYIHA ISHI YO‘RIQNOMASI

Loyiha ishi topshiriqlarining mazmuni quyidagicha:

Quyidagilarga e’tibor bergan holda Ona tilini o‘qitish metodikasi yoki

Adabiyot o‘qitish metodikasi fani uchun 2 soat (1 ta juftlik) ma’ruza va 1 soat amaliy mashg‘ulot loyihasini tayyorlang:

- mavzulardan birini ixtiyoriy ravishda tanlang;
- mavzuga mos materiallar to‘plang;
- har bir soatga nimani yoritishingiz rejasini tuzib oling;
- mavzuning maqsadini belgilab oling;
- talabalar shakllantirilayotgan ko‘nikmalarni aniqlab oling;
- mavzu doirasida qanday adabiy/lingvistik mavzularni berish mumkinligini ajratib oling;
- tanlagan materiallaringiz yuzasidan ma’ruza material, savol va topshiriqlar tuzing.

Estatma:

- har bir mashg‘ulotni 90 daqiqaga mo‘ljallang;
- dars loyihasining shakli va dizayniga ham e’tibor bering.

Loyiha ishi yuzasidan og‘zaki taqdimot (10 daqiqa). YAKUNIY NAZORAT ISHINI BAHOLASH MEZONI

TOPSHIRIQNI BAHOLASH MEZONI	
tanlangan materiallar belgilangan mavzuga mos bo‘lsa	1–15 ball
talabalar shakllantirilayotgan ko‘nikmalar aniq belgilangan bo‘lsa	1–15 ball
o‘quv topshiriqlari to‘g‘ri va maqsadli tuzilgan bo‘lsa	1–15 ball
har bir soat 90 daqiqaga mo‘ljallangan bo‘lsa	1–10 ball
dars loyihasining shakli va dizayni talabga javob bersa	1–15 ball
LOYIHA ISHI YUZASIDAN TAQDIMOT QILISH	
Taqdimotning xatosiz va sifatli tayyorlangani	1–10 ball
Tayyorlangan loyiha ishini belgilangan vaqt doirasida mazmunli ochib berilishi	1–10 ball
Umumiy ball	90 ball
81–90	“5” baho
71–80	“4” baho
61–70	“3” baho
60 ball va undan past	“2” baho

5 (a’lo) baho: talaba loyiha ishini to‘liq va xatosiz bajarsa, mustaqil xulosa va qaror qabul qila olsa, ijodiy fikrlay olsa, mustaqil mushohada yuritib, olgan bilimni amalda qo‘llay olsa, fanning mohiyatini tushunsa, kasbiy kompetentlikka ega bo‘lsa;

4 (yaxshi) baho: talaba loyiha ishini to‘liq va xatosiz bajarsa, mustaqil xulosa qila olsa, mustaqil mushohada yuritib, olgan bilimni amalda qo‘llay olsa, fanning mohiyatini tushunsa, kasbiy kompetentlikka ega bo‘lsa;

3 (qoniqarli) baho: talaba loyiha ishini bajarsa, loyiha mazmunini ochib berishda xatoga yo‘l qo‘ysa, olgan bilimni amalda qo‘llay olsa, fanning mohiyatini tushunsa;

2 (qoniqarsiz) baho: talaba loyiha ishini qisman bajarsa, loyiha mazmunini ochib bera olmasa, olgan bilimni amalda qo‘llay olmasa, fanning mohiyatini tushunmasa.

Nazoratlarning o‘tkazilishi muddatlari muayyan o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

Fan mazmuni		Soat
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M) (3-semestr)		30
M1	Til o‘qitish nazariyalari	2
M2	Til o‘qitish metodlarining tanqidiy tahlili	2
M3	“Postmetod” ta’lim tushunchasi va uning tamoyillari	2
M4	O‘rganish imkoniyatlari va strategiyalari	2

M5	Til ta'limi aktlari monitoringi	2
M6	Til ta'limida nutqiy malakalarni rivojlantirish mazmuni	2
M7	Til ta'limida integrativ yondashuv	2
M8	Til ta'limi va o'quv dasturlari masalasi	2
M9	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va uning tanqidiy tahlili	2
M10	Stereotip ta'lim va uni yuzaga chiqaruvchi omillar	2
M11	Milliy va xorij adabiy ta'limining qiyosiy tahlili	2
M12	An'anaviy, konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm ta'limiga asoslangan yondashuvlar	2
M13	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga konseptual yondashuv	2
M14	Adabiy ta'lim nazariyalari	2
M15	Badiiy asar tahlilida interfaol usullar	2
Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (3-semestr)		30
A1	Til o'qitishda mutaxassislikka oid fanlar va ularning tavsifi	2
A2	Til o'qitishdagi yondashuvlar	2
A3	Tilga asoslangan metodlar	2
A4	O'rganuvchi va o'rganishga asoslangan metodlar	2
A5	Til o'qitish strategiyalari va postmetod ta'lim	2
A6	O'qish, yozish, tinglash va gapirish malakalarini shakllantirish	2
A7	Lingvistik bilimni kontekstda berish	2
A8	Adabiyotshunoslikka oid maxsus fanlarni o'qitishga xos xususiyatlar	2
A9	O'zbek va jahon adabiy ta'limiga xos xususiyatlar	2
A10	Gardnerning "Turfa zakovatlar" nazariyasi va uning ta'lim jarayonlariga tatbiqi	2
A11	Badiiy matn tahlilida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish strategiyalari	2
A12	Maxsus fanlarni o'qitishda xalqaro standartlar	2
A13	Badiiy asar tahlilida retseptiv estetika	2
A14	Adabiy ta'limda o'rganuvchi ehtiyojini aniqlash usullari	2
A15	Tanqidiy fikrlashga qaratilgan yondashuvlar. Ilmiy-tanqidiy hamda nazariy-falsafiy konsepsiya	2

Mustaqil ta'lim (MT) (3-semestr)		soat
T/R	Mustaqil ta'lim mavzulari	90
I	Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uyga vazifalarni bajarish	45

2	1. Til o'qitish darslarida o'rganuvchining mustaqilligini qo'llab-quvvatlash. 2. Umumiy lisoniy malaka va ijtimoiy xoslangan lisoniy malaka. 3. Lisoniy malakani rivojlantirish makrostrategiyalari. 4. Lingvistik bilimni kontekstda berish usullari. 5. Til ta'limida jahon standartlari. 6. Tilga oid fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. 7. Til o'qitishga oid ilmiy tadqiqotlar tavsifi.	10
3	8. Adabiy ta'limda jahon standartlari. 9. Adabiyot o'qitishning samarali o'qitish strategiyasi. 10. Adabiyot fanlarini o'qitishda personal yondashuv (personal approach) tajribasi	10
4	11. Adabiyot ta'limida an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar. 12. Milliy va jahon adabiy ta'limi. Umumiylik va xususiylik masalalari. 13. Adabiy ta'limga ilmiy metodik yondashuv. Taqrizlar, ilmiy maqolalar yozish amaliyoti. 14. Adabiyot o'qitishga oid ilmiy tadqiqotlar tavsifi.	25

O'quv manbalari
asosida og'zaki
taqdilot

Asosiy adabiyot	
1	Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (Til ta'limiga oid fanlar moduli). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2020. – 96 b.
2	Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2024. – 296 b.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1	To'xliyev B. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2008.
2	Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press, 2003.
3	Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015.
4	Methodology in language teaching an anthology of current practice. Jack C Richards and Willy A. Renandya (Eds). Cambridge University Press, 2003.

5	Франсуа Мари Жерар и Ксавье Роже. Разработка и анализ школьных учебников. – Будапешт: AB OVO, 1998.
Axborot manbalari	
1	Outstanding Online Language Labs That Have Revolutionized Our Learning https://www.fluentu.com/blog/online-language-lab/
2	Buyuk Britaniyaning "National Literacy Trust" (Milliy savodxonlik fondi) https://literacytrust.org.uk/about-us/
3	AQSHning "Key to Literacy" (Savodxonlik kaliti) tashkiloti https://www.keystoliteracy.com/free-resources/videos/

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Mualliflar:	Z.I.Mirzayeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasi professori, f.f.d. K.M.Mavlonova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi professori, p.f.d. (DSc)
E-mail:	klaramavlonova@gmail.com klaramavlonova@navoiy-uni.uz
Tashkilot:	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi
Taqrizchilar:	S.I. Kambarova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc) G'.H.Hamroyev – Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil 28-avgustdagi 2-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

V.Nazarov

Kafedra mudiri

S.Muhammedova

Tuzuvchilar

Z.Mirzayeva
K.Mavlonova

ARM direktori

Z.Jumayeva